

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**APPROACHES TO THE RESEARCH OF FOOD NAMES IN ARABIC AND UZBEK LANGUAGES*****Barnokhon N.Ismailova****Independent researcher**Department of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*[*barnokhonismailova7683@gmail.com*](mailto:barnokhonismailova7683@gmail.com)*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: food names, Arabic language, Uzbek language, linguoculturology, semantics, etymology, translation problems, national color, gastronomic lexicon.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: This article considers theoretical and practical approaches to the study of food names in the Arabic and Uzbek languages. The article in the linguacultural, semantic and etymological features of food names. It also studies the formation of national food names specific to both languages, their historical roots and connection with the cultural context. The article sheds light on the similarities and differences of lexical units related to Arabic and Uzbek cuisine based on a comparative analysis. The problems of the translation process of food names, in particular, the issues of expressing realities, preserving national color, and choosing adequate translation options, are also discussed. The article of the study are of significant scientific importance in the study of gastronomic terminology in the Arabic and Uzbek languages, translation theory, and linguacultural studies.

ARAB VA O‘ZBEK TILLARIDA TAOM NOMLARINI TADQIQ ETISHGA YONDASHUVLAR***Barnoxon N.Ismailova****Arabshunoslik oliy maktabi mustaqil-tadqiqotchisi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*[*barnokhonismailova7683@gmail.com*](mailto:barnokhonismailova7683@gmail.com)*Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit soʻzlar: Taom nomlari, arab tili, oʻzbek tili, lingvokulturologiya, semantika, etimologiya, tarjima muammolari, milliy kolorit, gastronomik leksika.

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab va oʻzbek tillarida taom nomlarini tadqiq etishning nazariy hamda amaliy yondashuvlari koʻrib chiqiladi. Maqola doirasida taom nomlarining lingvokulturologik, semantik va etimologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga har ikki tilga xos milliy ovqat nomlarining shakllanishi, ularning tarixiy ildizlari hamda madaniy kontekst bilan bogʻliqligi oʻrganiladi. Bundan tashqari arab va oʻzbek oshxonasiga oid leksik birliklarning oʻzaro oʻxshash va farqli jihatlari qiyosiy tahlil asosida yoritiladi. Taom nomlarining tarjima jarayonidagi muammolari, xususan, realiyalarni ifodalash, milliy koloritni saqlab qolish hamda adekvat tarjima variantlarini tanlash masalalari ham muhokama etiladi. Shuningdek, arab va oʻzbek tillarida gastronomik terminologiyani oʻrganish, tarjima nazariyasi hamda lingvokulturologiya yoʻnalishlarida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ НАЗВАНИЙ ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ НА АРАБСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Барнохон Н. Исмаилова

Независимый исследователь, Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

barnokhonismailova7683@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: названия продуктов питания, арабский язык, узбекский язык, лингвокультурология, семантика, этимология, проблемы перевода, национальный колорит, гастрономический лексикон.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические подходы к изучению названий продуктов питания на арабском и узбекском языках. В статье анализируются лингвокультурные, семантические и этимологические особенности названий продуктов питания. Также изучается формирование национальных названий продуктов питания, характерных для обоих языков, их исторические корни и связь с культурным контекстом. На основе сравнительного анализа в статье освещаются сходства и различия лексических единиц, связанных с арабской и узбекской кухней. Также обсуждаются проблемы процесса перевода названий продуктов питания, в частности, вопросы выражения реальности, сохранения

национального колорита и выбора адекватных вариантов перевода. С этой целью научным значением для изучения гастрономической терминологии на арабском и узбекском языках, теории перевода и лингвокультуры.

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda arabshunoslikda arab tili leksikasiga, xususan, taom nomlari bilan bog‘liq leksik birliklarga qiziqish sezilarli darajada ortmoqda. Buning sababi, arab taomlari faqatgina xalqning turmush tarzini emas, balki milliy dunyoqarashini, diniy e‘tiqodlarini, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim manba sifatida qaraladi. Arab tilidagi taom nomlari semantik jihatdan boy bo‘lib, ularning etimologik kelib chiqishi qadimgi arab, fors, turkiy va yunon tillariga borib taqaladi. Shu sababli, ushbu leksik birliklarni o‘rganishda lingvistik, lingvomadaniy va tarixiy-genetik yondashuvlar integratsiyasini talab etadi. Xususan, arab tilidagi taom nomlarining lingvomadaniy tahlili nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va antropologiya uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu leksik birliklarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish uzoq tarixga ega bo‘lib, uning dastlabki ko‘rinishlari De Sacyning ishlarida ko‘rinadi (De Sacy, 1806, pp. 72).

Uning ishlarida taom nomlarining etimologik ildizlari qadimgi arab, fors, turkiy va yunon tillariga borib taqalishi, bu esa arab tilining boshqa madaniyatlar bilan tarixiy aloqalarini yoritishi xususida so‘z boradi. Shuningdek, arab tilining leksik boyligi, shu jumladan, taom nomlari tahlil qilinadi. Arab taom nomlarining Evropa tillariga ta‘siri va ijtimoiy-madaniy konteksti o‘rganiladi.

Keyinchalik, mazkur masalaga qiziqish C. Levi-Straussning ham ishlarida o‘z ifodasini topib, uning tadqiqotlarida taom nomlari semiotik va madaniy ramz sifatida tahlil qilinadi. Arab taom nomlarining ijtimoiy marosimlar bilan bog‘liqligi va ularning madaniy kod sifatidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi (Levi-Strauss, 1964, pp. 54-56). Shuni ta‘kidlash lozimki, yuqoridagi asarlar arab taom nomlarini maxsus o‘rganishga bag‘ishlanmagan, lekin ularni etnolingvistik, leksikografik yoki semantik nuqtayi nazardan tahlil qilishda muhim manba vazifasini o‘tagan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qator arabshunos olimlardan Charles Perry (Perry, 2006, p. 121), Alan Davidson (Davidson, 2014, p. 960), Muhammad Ibn Sayyar al-Warraq (al-Warraq, 2007, p. 55) arab oshxonasi va u bilan bog‘liq leksikani fonetik, morfologik, semantik jihatdan o‘rganganlar. Ularning asarlarida arab tilidagi an‘anaviy taom nomlari, xususan, xumus (hummus), tabbule (tabbouleh), kuskus (couscous), ma‘mul (maamoul) kabi terminlar chuqur tahlil qilinganligini ko‘rish mumkin.

Dunyo arabshunosligida taom nomlari semantik-sintaktik, struktur aspektlarda ham o‘rganilgan. Jumladan, bu borada arab tilshunoslaridan doktor Qays Kazim Aljanaabiy (Aljanaabi,

2015, p. 34), Ibrahim Mazannar (Mazannar, 2003, p. 78), Muniyra Alnajjaar (Alnajjaar, 2007, p. 67) lar muayyan izlanishlar olib borganlar.

Tilshunos Shakillari esa o'zining arab tilidagi taom nomlarini qiyosiy-semantik aspektda o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotida arab tilidagi taom nomlarining semantik jihatdan tasniflab, mavzuiy guruhlarga birlashtiradi.

Arab tilshunosligida taom nomlarining lingvistik xususiyatlari ayrim maqolalarda ham yoritilgan. Jumladan, Shef-oshpaz arab oshpazlarning yetakchisi, Xalqaro federatsiyasi Prezidenti Ahmad Al-Madaroni o'zining "Arab oshxonasining evolyutsiyasi: originallik va kreativlik o'rtasida" nomli maqolasida "arab oshxonasi mintaqaning eng mashhur madaniy va badiiy meroslaridan biri hisoblanadi, chunki u arab xalqlarining tarixi va boy madaniyatini aks ettiradi" deya ta'kidlaydi.

Natijalar. Arabshunoslar tomonidan taom nomlari bilan bog'liq terminlar, asosan, etnolingvistik aspektda tahlil qilingan. Mazkur yondashuvga ko'ra, har bir taom nomi xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy hayoti va diniy an'alarining mahsuli sanaladi.

Rus sharqshunoslaridan V.S.Ilyasov o'zining "Концептуальные принципы формирования семантики членов русского и арабского фразеологического поля "Питание" (Ilyasov, 2018, 2(52)) nomli maqolasida arab tilidagi taomlarni bildiruvchi birliklarning frazeologizmlar tarkibida qo'llanishi masalasini rus tilidagi frazeologizmlar bilan qiyosiy aspektda o'rganib, rus va arab frazeologik birliklarida "Ovqatlash" semantik maydoniga oid leksik birliklar ishtrokidagi frazeologizmlarning semantik shakllanish printsiplarini konseptual tahlil qilgan.

Shuningdek, I.G. Gerasimova chuvash taom nomlarini monografik planda chuqur tahlil qilib, "chuvash tilida oziq-ovqat nomlari hozirga qadar alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan"ligini ta'kidlaydi (Gerasimova, 2003, p. 168). Uning fikricha, ovqatlanish madaniyati bilan bog'liq leksik va terminologik birliklar tilning tarixiy rivojlanishida turlicha yo'nalishda rivojlanadi: ba'zilar o'ta barqaror bo'lib, ming yillar davomida til lug'at boyligida saqlanib qoladi, boshqalari esa eksrtalingvistik omillar ta'sirida iste'mol doirasi chegaralanib qo'llanishdan chiqadi yoki semantik tarkibi muayyan o'zgarishlarga uchraydi.

Tojikistonlik olima Z.M. Sharipova o'z tadqiqotlarida tojik, arab va rus tillaridagi taom nomlari ishtirokida hosil qilingan frazeologik birliklarni, xususan, ularning badiiy matnlardagi o'rnini hisobga olgan holda qiyosiy tahlil qilgan. U bunday frazeologik birliklarning shakllanish xususiyatlarini ochib bergan hamda ona tilida so'zlashuvchilarning nutqiy amaliyotidagi ahamiyatini, shuningdek, ushbu tillar frazeologik fondlarining kelib chiqishi bo'yicha nazariy va amaliy masalalarni atroflicha ko'rib chiqqan (Sharipova, 2011, p. 127).

Arab tilidagi taom nomlari turkolog olimlarning ham diqqat markazida bo'lib, buning ildizi M.Qoshg'ariyning ishlaridan boshlangan (Koshgariy, 1960-1963, V.3).

Boshqird tilshunosi A.R. Xabibulina o'z dissertatsiyasida boshqird milliy taomlarining nomlarini o'rganib, ularning etnomadaniy ahamiyatini tahlil qilgan. Uning tadqiqotida ta'kidlanishicha, "Har bir xalqning an'anaviy oshxonasi uning ijtimoiy va ma'naviy tarixini, tarixiy-madaniy aloqalarini hamda milliy madaniyatini aks ettiradi. An'anaviy taomlar etnogenetik va lingvistik tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi va moddiy madaniyatning ajralmas qismi sifatida xalqning o'tmishdagi turmush tarzi, atrof-muhit bilan munosabatlari, milliy odatlar va taomga oid e'tiqodlarini qayta tiklash imkonini beradi (Xabibulina, 1999, p. 176).

F.S. Aminyevaning "Boshqird tilidagi an'anaviy taom nomlari" (Aminyeva, 2005, p. 177) nomli dissertatsiyasida boshqird xalqining an'anaviy ovqatlanish madaniyati va unga xos leksik birliklar, xususan, arab tilidagi taom nomlarining ta'siri misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy davrda an'anaviy ovqatlanish madaniyatining asta-sekin yo'qolib va bu jarayon bilan bog'liq leksik birliklarning ham kamayib borayotgani ta'kidlanadi. Unda mazkur leksik birliklar milliy oshxona va turmush madaniyatini o'rganish uchun muhim manba sifatida qaraladi. Shu sababli, tadqiqotda fan rivoji va zamonaviy talablar nuqtayi nazaridan oziq-ovqat mahsulotlariga oid leksikaning kompleks ilmiy tahlili amalga oshiriladi. Muallifning qayd etishicha, "Bunday tadqiqotlar boshqird tilining leksikasini boyitish bilan birga, xalqning moddiy va ma'naviy madaniyati tarixini o'rganish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi" (Aminyeva, 2005, p. 177)

Shuningek, G.R. Karimova, M.R. Valiyevalar tomonidan hammualliflikda chop etilgan maqolada boshqird xalqining chaqaloq tug'ilishi bilan bog'liq marosimida tayyorlanadigan taom nomlari keltirilgan (Karimova, Valiyeva, 2021). Bundan tashqari, S.I. Rudenko (Rudenko, 1955, p. 394) ning boshqirdlarining tarixiy va etnografik ocherklarida ba'zi boshqir taom va ichimlik nomlarining etnografik tavsiflari, D.G. Amirovning "Boshqirdlarning etnografik qarashlari" (Amirov, 1922, p. 96) nomli maqolasida boshqird xalqining ba'zi taom nomlari, xususan, ayron, bishbarmaq, qimis, balma, bo'za va h.k.larning qichqacha ta'riflari keltirgan.

A.G. Shamayev XX asr o'rtalarida o'zining bir qator tadqiqotlarida "Qimiz va qimizshofisi" mavzusiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda ushbu an'anaviy ichimlikning tayyorlanishi, madaniy ahamiyati va leksik xususiyatlarini tahlil qilgan bo'lsa (Shamayev, 1989, p. 222), R.G. Gadelgareeva o'zining "Boshqirdlarning an'anaviy sut va go'sht mahsulotlarini konservalash usullari" (Gadelgareeva, 1978, pp. 53-62) nomli maqolasida ushbu mahsulotlarni tayyorlash jarayoni, konservalash texnologiyalari va taom tayyorlashda qo'llaniladigan mahsulotlarning nomlari hamda ularni ishlab chiqarish usullarini batafsil yoritgan.

Xulosa. Arab taom nomlari etnolingvistik, leksikografik, semantik va lingvomadaniy nuqtayi nazardan o'rganilgan bo'lib, ular xalqlarning tarixiy tajribasi, ijtimoiy hayoti va diniy an'alarini aks ettiruvchi muhim manba sifatida qaraladi. Bu borada olib borilgan barcha

tadqiqotlar arab tilining leksik boyligini saqlash, tarixiy-madaniy aloqalarni yoritish va global lingvistik jarayonlarda uning o'rnini aniqlashda muhim hissa qo'shadi. Biroq taom nomlarining maxsus lingvistik, xususan, lingvokulturologiyaning asosiy obyekti sifatida tizimli tasnifi va chuqur tahlili bo'yicha tadqiqotlar hali yetarli emas, bu esa mazkur hodisani kelajakda kengroq izlanishlarni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. De Sacy, S. (1806). *Chrestomathie arabe, ou, Extraits de divers écrivains arabes.* – Paris: Imprimerie Imperiale. – 341 p. (in Francian)
2. Levi-Strauss, C. (1964). *Le cru et le cuit.* – Paris: Plon. 234p. (in Francian)
3. Ilyasov V.S. (2018). Conceptual principles of formation of semantics of members of Russian and Arabic phraseological field “Nutrition”. *Kontseptual'nie printsipi formirovaniya semantiki chlenov russkogo I arabskogo frazeologicheskogo polya “Pitanie” // Philology and Culture.* – Moscow, No. 2 (52).
4. Gerasimova, I.G. (2003). *Name of food in the Chuvash language: Nazvanie pishi v chuvashskom yazike. diss. ...kan. Philol. Sci. – Chuvash.* – 168 p. (in Russian)
5. Sharipova, Z.M. (2011). *Semantic and structural analysis of phraseological units of the Tajik, Arabic and Russian languages. Semantiko-strukturniy analiz frazeologicheskix edinits tadjikskogo, arabskogo I russkogo yazikov.* – Dushanbe. 234 p. (in Russian)
6. Koshgariy, M. (1960-1963). *Devonu lug'atit turk. 3 veins. Devonu lug'atit turk.* – Tashkent: Fan. (in Uzbek)
7. Karimova, G.R., Valieva M.R. (2021). *Etymological description of the food of the Bashkir folk ritual. Etimologicheskoe opisanie pishi narodnogo obryada Bashkir // Bulletin of the Bashkir University. – Bashkortostan, – T.26. No. 1. – P. 179-183.* (in Russian)
8. Rudenko S.I. (1955). *Bashkirs: Historical and Ethnographic Essays. Istoriko-etnograficheskie ocherki.* – Moscow. Nauka. – 394p. (in Russian)
9. Amirov, D.G. (1922). *The Bashkirs: An ethnographic sketch. Bashkiri. Etnograficheskiy ocherk. In Proceedings of the Scientific Society for the Study of Everyday Life, History, and Culture under the People's Commissariat for Education of the BSSR (Vol. 1, Issue 2).* – Sterlitamak. – 96 p. (in Russian)
10. Khabibulina, A.R. (1999). *Bashkir folk food: Diss. ... Cand. of History.* – Ufa, – 176 p. (in Russian)
11. Gadelgareeva, R.G. (1978). *Traditional methods of preserving dairy and meat products among the Bashkirs. Traditsionnie sposobi konservirovaniya molochnix I misnix produktov u Bashkir // Culture and life of the Bashkirs.* – Ufa. – Pp. 52-63. (in Russian)

12. Shamaev, A.G. (1989). Bashkir kumiss. Bashkirskiy kumis. – Ufa: Bashkir Book Publishing House. – 222 p. (in Russian)
13. Perry, C.A. (2006). Baghdad Cookery Book. – Baghdad: Prospect Books. – 121 p. (in English)
14. Davidson, A. (2015). The Oxford Companion to Food. – Oxford: Oxford University Press. – 960 p. (in English)
15. Warraq. I.S. (2007). The Book of Dishes. Kitab al-Ṭabīkh. Translated by Nawal Nasrallah. – Brill. – 87 p. (in Arabic)
16. Aljanaabi Q. Kazim. (2015). The Arab Kitchen. Al-Matbah Al-A‘rabiyy. – Bagdad. – 86 p. (in Arabic)
17. Mazannar, I. (2003). The Art of Arab Cooking. Fannu At-Tabhu Ala‘rabiyy. – Beirut. – 98 p. (in Arabic)
18. Alnajjaar, M. (2007). The Art of Sweets and The Art of Eastern and Western Cooking. Fannu Al-Halaviyat va Fan At-Tabhu ash-Sharqiy va Al-G‘arbiyy. – Cairo. – 90 p. (in Arabic)